

**BANK AKTIVLARINING SAMARALI FOYDALANISH  
KO'RSATKICHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR  
TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Samadova Nilufar*

*O'zbekiston Respublikasi*

*Bank-moliya akademiyasi magistranti*

**Annotatsiya**

Ushbu tezis O'zbekiston bank tizimidagi tijorat banklarida bank aktivlaridan samarali foydalanish va ularni takomillashtirishga bag'ishlangan. **Tadqiqot maqsadi bank aktivlari samaradorligini oshirish uchun yangi yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot usullari sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash va mantiqiy xulosalar chiqarish qo'llaniladi. Shu bilan birga, bank aktivlarini samarali boshqarish usullarini takomillashtirishdagi muammolar tahlil qilingan va bartaraf etish bo'yicha takliflar keltirilgan.**

**Kalit so'zlar:** bank tizimi, bank aktivlari, to'lov qobiliyati, likvidlilik, samaradorlik, aktiv va passiv, investitsion portfel, kredit.

**Kirish**

Hozirgi kunda bank aktivlarining samaradorligi tijorat banklarining barqaror faoliyatini ta'minlovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Bank aktivlari samaradorligini oshirish zamonaviy faoliyatining dolzarb muammolaridan biri bo'lib, bu borada ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bank aktivlari samaradorligini oshirish uchun turli xil yondashuvlar va usullar qo'llaniladi, jumladan, riskni boshqarish tizimini takomillashtirish, investitsion portfelni diversifikatsiya qilish, yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni joriy etish va boshqalar. Ushbu tadqiqotning maqsadi bank aktivlari samaradorligini oshirishning yangi yo'nalishlari va amaliy tavsiyalarini ishlab chiqishdan iborat. Bank faoliyatining asosiy pirovard maqsadi daromadni maksimal darajada olishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan olganda, bank aktivlarining daromadlilikini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan samarali islohotlar natijasi o'laroq, bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish borasida belgilab berilgan vazifalarning bosqichma bosqich amalga oshirib borilishi natijasida tijorat banklari faoliyati yanada takomillashib, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va eng asosiysi, aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi kundan kunga ortib, mustahkamlanib bormoqda.

**Mavzuning dolzarbligi**

Bank aktivlarining holati uning faoliyati davomida o'zgarib turadi. Bank aktivlarining holati ijobiy yoki salbiy tamonga o'zgarishi mumkin. Bank aktivlarining

qanday o'zgarishi aktivlarni boshqarishga va to'g'ri yo'naltirishga bog'liq. Shuning uchun ham bank aktivlarining holatini muntazam ravishda o'rganib, ularning o'zgarishini tahlil qilib borish lozim

Bank aktivlarining asosiy qismini, odatda mijozlarga beriladigan kreditlar va banklararo kreditlar tashkil etadi. Bank amaliyotida bank krediti, bank oladigan daromadlarning asosiy qismini ta'minlaydi. Bank krediti iqtisodiyotda kredit munosabatlarining keng tarqalgan shakli bo'lib, bunda pul mablag'lari kredit obyekti bo'lib xizmat qiladi. Bank aktivlari birinchi navbatda qisqa muddatli kelajakni nazarda tutadi va har kungi bank balansini boshqarish ishi bilan bog'liqdir. U bank faoliyatida daromadni oshirish va risk larni chegaralashga yo'naltirilgan.

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yo'nalishi doirasida yalpi ichki mahsulot o'sish sur'ati 6 foizdan kam bo'lmagan darajada, investitsiya esa yalpi ichki mahsulotga nisbatan kamida 30% bo'lish choralari korilmoqda. Buning zamirida banklarning iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik rolini yanada oshirish, aktivlar bilan bog'liq amaliyotlar hajmini doimiy ravishda ko'paytirib borish kabi masalalar yotadi. Hozirda respublikamiz tijorat banklari tomonidan aktivlarini baholash va boshqarish, aktiv operatsiyalarning sifat darajasi va rentabelligini oshirish uchun muhim zaruriyat hisoblanadi. Chunki nafaqat bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida, balki rivojlangan davlatlarda ham tijorat banklari faoliyati, ularni iqtisodiy tarmoqlarni, real hamda moliyaviy sektor faoliyatini rivojlantirish uchun moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi lokomotiv funksiyasi mavjudligini tan olingan. Shuning uchun tijorat banklari daromad olish maqsadida aktiv operatsiyalarga kirishi uchun avvalo ularni boshqarish amaliyotini takomillashtirib borishlari, likvidligi, risklik, sifatlilik, diversifikatsiyalashgan kabi muhim bevosita ta'sir etuvchi omillarga e'tibor berishlari zarur. Bu esa, tijorat banklari aktivlari tarkibini optimallashtirishning dolzarb masala ekanligini tasdiqlovchi yana bir dalil hisoblanadi. Bank aktivlarining uning passivlari bilan mutanosibligini ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bank aktivlari uning xodimlari, auditorlar va markaziy bank tomonidan o'rganilib, tahlil qilib borishning davr talabi bo'lib qoladi. Har qanday bank ham o'zining aktivlarining tarkibini samarali shakllantirishda ma'lum bir muammolarga uchraydilar. Bank aktivlarining sifati, aktivlarning maqsadga muvofiqlik tuzilishiga, likvidligi, aktiv operatsiyalarning diversifikatsiyasiga, riskli aktivlarning hajmiga, muammoli va sifatsiz aktivlarning salmog'i va aktivlarning o'zgaruvchanlik sifatlariga bog'liq. Banklarning daromad keltiruvchi aktivlari qatorida banklararo kreditlar va investitsiyalar kichik salmoqni tashkil qiladi. Bankining aktiv operatsiyalarida daromad keltiruvchi aktivlarni ko'paytirish, ya'ni bank likvidligini saqlagan holda aktivlarning qolgan qismini daromad keltirish uchun joylash muhim ahamiyat kasb etadi. Daromad keltiruvchi aktivlarning asosiy daromad tarkibi foizli daromadlardir. Foizli daromad manbayi

kreditlarni bir soha yoki tarmoqqa emas, balki bir nechta tarmoqqa joylashtirish kerak. Banklarda daromadlar tarkibini ko'paytirish uchun bank daromad keltiruvchi xizmatlar turini ko'paytirishi kerak. Xalqaro amaliyotda shu jumladan O'zbekistonda ham tijorat banklarining balansi asosan tarkibiy tuzilmadan: aktiv va passivdan iborat. Bank aktivlari balansning aktiv qismida olib boriladi. Tijorat banklari tomonidan o'zlik va jalb etilgan pul mablag'laridan ma'lum daromad olish va o'zining likvidligini saqlab turish maqsadida olib boradigan operatsiyalari aktiv operatsiyalar hisoblanadi. Aynan tijorat banklari olib boradigan aktiv operatsiyalar natijasida o'zlarining asosiy ma'lumot bazasini shakllantiradilar. Aktiv operatsiyalarning miqdori tijorat bankining ustav kapitali miqdori, bank faoliyatining yo'nalishi, mijozlar tarkibi, bankda zamonaviy texnologiyalarni mavjudligi, bank xodimlarining malakasi kabi ko'plab omillarga bog'liqdir. [5] Iqtisodiy adabiyotlarda aktiv operatsiyalarning mohiyatini ochishda ularni an'anaviy va no'anaviy bank xizmatlariga ham ajratadilar. Chunki ularning fikricha tijorat banklari faqat o'zlariga xos vazifalardan tashqari boshqa xo'jalik yurituvchi korxonalarining ham vazifalarini bajaradilar. Tijorat bankini o'zi bajaradigan an'anaviy va no'anaviy funksiyalari orasida har kuni bank mijozlarining talablariga asosan naqd pulsiz hisob – kitoblarni beto'xtov amalga oshirish va ularni hisobidan naqd pullarni yetkazib berishi lozim. Shuning uchun tijorat banklari ixtiyoridagi aktivlarining bir qismi pul shaklida, odatda bankning korrespondent hisobraqamidagi qoldiq va bank kassasidagi naqd pul shaklida saqlanib turishi lozim

Bank faoliyati jarayonida o'zining aktivlarini maqsadga muvofi q joylashtirib bank likvidlilik talablarini bajarishi kerak hamda o'zining majburiyatlari summasidan, ko'rinishidan kelib chiq

### **Xulosa va takliflar**

Hozirgi sharoitda respublikamiz tijorat banklari aktivlarini oqilona boshqarish va bank tizimining likvidliliigi va barqarorligi mamlakat uchun g'oyat muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, birgina bankning inqirozga uchrashi, butun respublikada to'lov tizimining buzilishi kabi salbiy oqibatga olib kelishi mumkin. Ushbu masalalar zamirida banklarning iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik rolini yanada oshirish, aktivlar bilan bog'liq amaliyotlar hajmini doimiy ravishda ko'paytirib borish kabi masalalar yotadi. Hozirda respublikamiz tijorat banklari aktiv operatsiyalarining miqdori tijorat bankining ustav kapitali miqdori, bank faoliyatining yo'nalishi, mijozlar tarkibi, bankda zamonaviy texnologiyalarni mavjudligi, bank xodimlarining malakasi kabi ko'plab omillarga bog'liqdir. Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining rivojlanish darajasi past holda qolayotgan yo'nalishi bu – respublika tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarini rivojlanmaganligidir. Tijorat banklarda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalari tarkibida tijorat qimmatli qog'ozlariga qil-ingan investitsiyalari sezilarida darajada past salmoqqa ega bo'lib qolmoqda. Tijorat

banklarning qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bo'lgan aktiv operatsiyalarining samaradorligini oshirish lozim. Buning uchun, birinchidan, qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning bank aktivlarining umuhajmidagi salmog'ini oshirish lozim; ikkinchidan, bankda emitentlarning moliyaviy holatini baholash tizimini takomillashtirish lozim. Respublikamiz tijorat banklarining aktiv operatsiyalarining samaradorligini ta'minlash maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir: Mamlakat tijorat banklarida kassali aktivlarni yirik miqdorda to'planib qolishiga yo'l quymaslik choralari ishlab chiqish lozim. Buning uchun, avvalo, tijorat banklarining depozit bazasi tarkibida muddatli va jamg'arma depozitlari salmog'ini oshirish lozim. Tijorat banklarida mijozning kredit to'loviga layoqatliligini baholash tizimini takomillashtirish lozim. Bu bank aktivlarini samarali boshqarish hamda ular sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarida aktivlar samaradorligini oshirish milliy iqtisodiyotimizda zamonaviy bank talablariga to'liq mos keladigan bank tizimini shakllantirish, bankning ichki va xalqaro moliyaviy bozorlarda raqobatbardoshligini mustahkamlashga zamin yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi —Banklar va bank faoliyati to'g'risida gi Qonuni (yangi tahriri), O\_RQ-580, 2019 yil 5 noyabr.
3. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. T.: «Iqtisod-Moliya» nashriyoti, 2017. – 768 b.
2. Omonov A.A. Tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarish.- Monografiya.-T.: —IQTISOD-MOLIYall.-2016.-B.160.
4. Azizov U.O', Qoraliyev T.M. va boshqalar. Bank ishi. T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016
5. Омонов А.А (2010) Тижорат банкларининг ресурсларини самарали бошқариш масалалари. Монография. "Фан ва технологиялари", 43 бет
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tayyorlandi. <https://cbu.uz/oz/statistics>